

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLLIGI



ORIENTAL
UNIVERSITETI

**PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
YO'NALISHLARDA
YOSH TADQIQOTCHILARNING O'RNI**

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

(2026-yil 10-fevral)



Toshkent – 2026

TAHRIR HAY‘ATI

1. **M.A.NASIROVA** – filologiya fanlari nomzodi, professor (mas’ul muharrir).
2. **T.M.ISAQULOV** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.
3. **Sh.G‘.KARIMOVA** – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.
4. **J.B.MAMADIYOROV** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.
5. **U.B.MAMANAZAROV** – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).
6. **Y.B.MAXMUDOV** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).

To‘plamga kiritilgan maqola va tezislarga dalil, raqam va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’uldir.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TARBIYA FANINI O‘QITISHDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna

Oriental Universiteti Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi

Erkinxo‘jayeva Mohinaxon Baxtiyor qizi

Oriental Universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida tarbiya fanining o‘rni va ahamiyati hamda uni o‘qitishda didaktik o‘yinlardan foydalanish masalalari yoritilgan. Unda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, didaktik o‘yinlarning tarbiyaviy jarayondagi samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, tarbiya fani, didaktik o‘yinlar, tarbiyaviy jarayon, ma’naviy-axloqiy tarbiya, ijtimoiy faollik, vatanparvarlik.

Аннотация: В статье раскрывается значение предмета «Воспитание» в системе начального образования и рассматриваются возможности использования дидактических игр в учебно-воспитательном процессе. Особое внимание уделяется учёту возрастных и психофизиологических особенностей учащихся начальных классов, а также роли дидактических игр в формировании духовно-нравственных качеств, социальной активности, самостоятельного мышления, патриотизма и гуманизма.

Ключевые слова: начальное образование, предмет «Воспитание», дидактические игры, воспитательный процесс, духовно-нравственное воспитание, социальная активность, патриотизм.

Annotation: This article discusses the role and significance of the *Tarbiya* (Moral Education) subject in the primary education system, as well as the issues of using didactic games in teaching it. Taking into account the age-related and psychophysiological characteristics of primary school students, the effectiveness of didactic games in the educational process is analyzed.

Keywords: primary education, *tarbiya* subject, didactic games, educational process, moral and ethical education, social activity, patriotism.

Bugungi kunda ta’lim tizimida yosh avlodni har tomonlama barkamol, ma’naviy yetuk va ijtimoiy faol shaxs etib tarbiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu bosqichda o‘qitiladigan **tarbiya fani** bolalarda axloqiy fazilatlar, ijtimoiy xulq-atvor me’yorlari, o‘zaro hurmat, mas’uliyat va vatanparvarlik kabi tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy fazilatlar, ijtimoiy faollik, mustaqil fikrlash, vatanparvarlik va insonparvarlik tushunchalarini shakllantirish imkoniyatlari asoslab beriladi. Shuningdek, maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim va tarbiya sohasidagi ustuvor yo‘nalishlari, xususan, “Ta’limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” hamda besh muhim tashabbus doirasida tarbiya fanining mazmunini boyitish masalalariga e’tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun amaliy va metodik ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, tarbiya fanini samarali o‘qitishda an’anaviy usullar bilan bir qatorda didaktik o‘yinlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol fikrlashga undaydi hamda tarbiyaviy mazmundagi bilim va ko‘nikmalarni oson va mustahkam o‘zlashtirishga yordam beradi.

Hozirgi globallashuv sharoitida ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol, mustaqil fikrlaydigan va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir. K.D. Ushinskiy ta’kidlaganidek, “tarbiya inson shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qilishi lozim”

Pedagog olimlar fikricha, ushbu fan mazmunini samarali yetkazishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos metod va vositalardan foydalanish muhim hisoblanadi

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari faoliyatining yetakchi turi o‘yin bo‘lganligi sababli, tarbiya fanini o‘qitishda didaktik o‘yinlardan foydalanish yuqori pedagogik samaradorlikka ega. L.S. Vygotskiy o‘yinni bolaning yaqin rivojlanish zonasi bilan bog‘lab, uning shaxs kamolotidagi rolini alohida e’tirof etgan. Didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilar tarbiyaviy bilimlarni majburan emas, balki qiziqish asosida egallaydilar, o‘z fikrini erkin bayon etish va axloqiy vaziyatlarga to‘g‘ri baho berish ko‘nikmalarini shakllantiradilar.

O‘zbekiston pedagog olimlari tadqiqotlarida ham didaktik o‘yinlar tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarda ijtimoiy faollik va ijobiy xulq-atvorni rivojlantirishda muhim vosita ekanligi ta’kidlanadi.

Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fanining maqsadi - bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo‘lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo‘lishdek hayotiy talablarni qo‘ymoqda.

Yoshlarni ma‘nan va jismonan barkamol qilib tarbiyalash iqtidori va salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularni davlat va jamiyatning rivojiga keng jalb etish, tashabbuslarini yetarli darajada qo‘llab-quvvatlash maqsadida huquqiy asoslar, iqtisodiy imkoniyatlar va tashkiliy mexanizmlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yoshi va psixofiziologik imkoniyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma‘naviyatni yanada chuqurroq singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalaridagi ma‘naviy tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etishdan iborat. tizimini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida yoshlar ta‘lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish vazifasi belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra ta‘lim muassasalarida

✚ Birinchi tashabbus - yoshlarni madaniyat va san‘at muassasalariga keng jalb etish.

✚ Ikkinchi tashabbus - yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish.

✚ Uchinchi tashabbus - yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va Internetdan samarali foydalanish.

✚ To‘rtinchi tashabbus - yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish.

✚ Beshinchi tashabbus - o‘quvchi-qizlarni ijtimoiy faol hayotga jalb qilish, kabilar tadbiq etildi.

Boshlang‘ich ta‘limda tarbiya fani ta‘lim muassasalaridagi tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etish shug‘ullanganligi sababli pedagogika fani bilan uzviy bog‘liqdir. Chunki pedagogika fani bola tarbiyasi va ularni o‘qitish jarayoni bilan 8 bog‘liq bo‘lgan muassalarni amalga oshiradi. Tarbiyaviy ishlar tizimini amalga oshirish hamda uning samaradorlik darajasi shaxsning qanday tarbiya topganligiga bog‘liq. Shuning uchun tarbiya jarayoni tarbiyaviy ishlar bilan bog‘liq holda rivojlanganligi tufayli pedagogikaning qonuniyatlariga tayanadi. Tarbiya ishlar jarayoni darsda va darsdan tashqarida tarbiyalanuvchilarning ma‘lum bir faoliyatlarida amalga oshiriladi. Bunda tarbiyalanuvchilarning ruhiy holatini bilmasdan turib, tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikka erishib bo‘lmaydi. Shaxsning ruhiy holati va yosh xususiyatlarini o‘rganadigan fan psixologiya fani hisoblanadi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish shaxsning psixologik xususiyatlariga bog‘liq bo‘lganligi uchun psixologiya, defektologiya, maxsus pedagogika fanlarining yutuqlariga tayanib ish olib boradi.

Umuman olganda, maktabda tarbiya fani boshlang‘ich sinflarda 1-4-sinf oralig‘ida haftada 1 marotaba o‘tiladi. Dars mazmunli va samarador bo‘lishi uchun esa turli xil metodlar va didaktik o‘yinlardan foydalanish kerak. Chunki, hozirgi paytda bolalarga nazariy ma‘lumot berilsa, bolalarda darsga bo‘lgan qiziqishi tushib, darsga qiziqmay qo‘yadi. Ushbu jarayonda ta‘lim mazmunini o‘quvchilarga samarali yetkazish uchun didaktik o‘yinlardan foydalanish muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Tarbiya fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan didaktik o‘yinlar mazmuniga ko‘ra axloqiy, ijtimoiy, huquqiy va estetik tarbiya yo‘nalishlariga bo‘linadi.

Didaktik o‘yin - bu ma'lum maqsadga qaratilgan, qoidalar bilan chegaralangan, o‘quv jarayonida bilim olishni o‘yin shaklida tashkil etishga imkon beruvchi metod hisoblanadi. U nafaqat o‘quvchilarning bilimni oshirishga, balki ularda ijodkorlik, mantiqiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, muammolarni hal qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu turdagi o‘yinlar, odatda, savol-javoblar, viktorinalar, jumboqlar yoki ma'lumotlarni sinashga qaratilgan topshiriqlar orqali tashkil etiladi. ma'lumotli o‘yinlar orqali o‘quvchilar o‘rganilgan bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. masalan, til o‘rgatishda so‘z boyligini oshirish uchun so‘z o‘yinlari, matematikada esa sonli masalalarni yechish orqali bilganlarini mustahkamlash mumkin. o‘yin jarayonida bilimlar qayta tiklanadi va ko‘nikmalar rivojlanadi; ko‘p sonli ishtirokchilarni jalb qilish. guruhli yoki jamoaviy o‘yinlar barcha o‘quvchilarni jarayonga jalb etish uchun samarali usuldir. bu usul o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, birgalikda muammolarni hal qilishga va bir-birlaridan o‘rganishga imkon yaratadi. misol uchun, "javobni top o‘yini" yoki "jamoaviy viktorina" kabi mashqlar guruhni birlashtirishda foydalidir; mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. jumboqlar, savol-javoblar va masalalar yordamida o‘quvchilar o‘z mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. masalan, matematik mantiq jumboqlari yoki algoritmlarni tuzishga qaratilgan mashqlar orqali bolalar analitik fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlashlari mumkin. bu o‘yinlar nafaqat bilimlarni, balki muammoni hal qilish qobiliyatlarini ham shakllantiradi. Masalan, "Kim tezroq javob beradi?" nomli o‘yin o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha savollar berib, ularning tez va aniq javob berish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, tarixiy mavzularda “Tarixiy sanalarni toping” kabi viktorinalar o‘quvchilarning faktlarni eslab qolish qobiliyatini mustahkamlaydi. Bu o‘yinlar ta'limning ko‘plab sohalarida, xususan, til o‘rganish, matematika va tarix fanlarida muvaffaqiyatli qo‘llaniladi.

Didaktik o‘yinlarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar:

- dars mavzusiga mos o‘yin tanlash. O‘yin dars mazmuniga mos bo‘lishi va belgilangan maqsadga xizmat qilishi zarur. Masalan, matematikaga oid mavzuda matematik masalalarni yechishga mo‘ljallangan o‘yin tanlash samaradorlikni oshiradi;

- oddiy qoidalarni belgilash. O‘yin qoidalari o‘quvchilarga tushunarli va sodda bo‘lishi lozim. murakkab qoidalar o‘quvchilarning qiziqishini pasaytirishi va vaqtni behuda sarflashga olib kelishi mumkin. Shuning uchun o‘yin boshlanishidan oldin qoidalar aniq tushuntirilishi lozim;

- faoliyatni muvozanatlashtirish. O‘yin davomida barcha o‘quvchilar teng ishtirok etishi ta‘minlanishi kerak. Guruhdagi barcha ishtirokchilarni jarayonga jalb qilish uchun rollarni teng taqsimlash muhim. Masalan, “savol-javob” o‘yinida savollarni navbat bilan berish orqali har bir o‘quvchi qatnashish imkoniyatiga ega bo‘ladi;

- tahlil va baholash. O‘yin yakunida natijalar muhokama qilinib, xulosa chiqarilishi lozim. Bu jarayon o‘quvchilarning o‘z xatolarini tahlil qilishlari, ulardan saboq olishlari va kelgusida yaxshiroq natijalarga erishishlariga yordam beradi;

- o‘quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish. Har bir o‘quvchi individual xususiyatlarga ega.

Didaktik o‘yinlarni tanlash va o‘tkazishda o‘quvchilarning yoshiga, bilim darajasiga va qiziqishlariga mos keladigan usullarni qo‘llash zarur. Masalan, kichik sinf o‘quvchilari uchun ko‘proq vizual va interaktiv elementlarga boy o‘yinlar samarali bo‘lsa, yuqori sinf o‘quvchilari uchun analitik va muammolarni hal qilishga asoslangan o‘yinlar foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Davlatov A. Didaktik o‘yinlarning ta‘lim jarayonidagi o‘rni / A. Davlatov. - Toshkent: O‘qituvchi, 2018. - 180 b.
2. Yuldashev A. Ta‘limda interaktiv metodlar: didaktik o‘yinlar va ularning o‘rni / A. Yuldashev. - Toshkent: Universitet, 2015. - 150 b.
3. Tursunov S. Bolalar ta‘limida didaktik o‘yinlar va ularning samaradorligi / S. Tursunov. - Samarkand: Samarqand universiteti, 2020. - 210 b.
4. Mammadov I. Didaktik o‘yinlar: o‘quvchi faolligini oshirishning usuli sifatida / I. Mammadov. - Baku: Elm, 2014. - 190 b.
5. Sharipov A. O‘quv jarayonida didaktik o‘yinlarning o‘rni va pedagogik ahamiyati / A. Sharipov. - Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti, 2016. - 200 b.
6. Ko‘chkarov B. Ta‘lim metodikasi va didaktik o‘yinlar / B. Ko‘chkarov. - Toshkent: Akademiya, 2017. - 175 b.

90.	Namazova Gulbahor Muzaffarovna, Maxmudova Zilola	Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligi darslarida ongli va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.....	414
91.	Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna, Erkinxo‘jayeva Mohinaxon Baxtiyor qizi	Boshlang‘ich sinflarda tarbiya fanini o‘qitishda didaktik o‘yinlardan foydalanish.....	420
92.	Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna, Nig‘matullayeva Fotima	Xalq ertaklarining tarbiyaviy ahamiyati.....	425
93.	Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna, Nig‘matullayeva Zuxra	Boshlang‘ichi sinf o‘quvchilarini ma‘naviyiy-axloqiy shakllantirishda xalq o‘yinlarining ahamiyati.....	430
94.	Yuldasheva Gulnora Saparbayevna	6–7 yoshdagi bolalarda “men” konsepsiyasining shakllanishida freyd nazariyasidan foydalanish.....	434
95.	Ismayilova Risolat Ikrambay qizi	Maktabgacha 5-6 yoshdagi bolalarda ijtimoiy motiv va rivojlantirish.....	437
96.	Ismayilova Risolat Ikrambay qizi	5-6 yoshdagi bolalarning ijtimoiy motivlarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida.....	441
97.	Atabaeva Pashshajon Shakirovna	Kichik yoshdagi o‘quvchilarda o‘qish malakasini shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati.....	445
98.	Jamoliddin G‘OFUROV, Saida SA‘DULLAYEVA	Algoritmik fikrlashni rivojlantirishda matematik masalalar va dasturlash uyg‘unligi.....	447
99.	Jamoliddin G‘OFUROV, Matluba ISLOMOVA	Kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish.....	457
100.	Xidirova Gavhar Babaqul qizi, Mirpo‘latova Iroda	Boshlang‘ich ta‘limda steam texnologiyalarini qo‘llash.....	464
101.	Xidirova Gavhar Babaqul qizi, Qurbonboyeva Nigora	Boshlang‘ich sinflarda funksional savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	471
102.	Mo‘minova Muborak	Boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishlashda interfaol metodlardan foydalanish va uning samarasi.....	476
103.	Islamova O‘zbekoyim O‘tkurjonovna	Alfa avlodini ta‘limga rag‘batlantirish....	480